



## BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA INNOVATSION OMILLARNING ROLI

**Toshmamatova Zuhra Shermatovna**

*Guliston davlat universiteti talabasi*

**Bahromova Dilfuza Olimjonovna**

*Guliston davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** *Jamiyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ijobiy jihatlari yortilgan. Global iqtisodiy integratsiya jarayonida zarur axborotning birinchilardan bo‘lib olinishi, undan samarali foydalanish va axborotni tezkorlik bilan mas‘ul shaxslarga yetkazilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.*

**Kalit so‘zlar.** *Iqtisodiy o‘shish, rag‘batlantirish, innovatsion texnologiya, axborot, milliy segmentni rivojlantirish.*

Iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishda innovatsion texnologiyalar juda katta imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Bunda innovatsion texnologiyalardan foydalanish aholining jamiyat hayotida bevosita ishtiroki darajasini yanada oshiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘lsa, aholining turmush darajasi yaxshilanishiga, daromadlarining ortishiga, pirovard natijada mamlakat iqtisodiyotining o‘shishiga olib keladi. Bugun AKTning milliy iqtisodiyotning o‘shishiga va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish Dasturlarining amalga oshirilishida bevosita ishtirok etishi va ijobiy natijaga olib kelishi chet davlatlar tajribasidan ma‘lum. AKTning yana bir muhim jihati shundaki, AKT yordamida axborotlar yig‘iladi, qayta ishlanadi, saqlanadi va uzatiladi. Global iqtisodiy integratsiya jarayonida zarur axborotning birinchilardan bo‘lib olinishi, undan samarali foydalanish va axborotni tezkorlik bilan mas‘ul shaxslarga yetkazilishi juda dolzarb ahamiyat kasb etadi. AKTning jamiyat hayotida yana bir ajoyib ahamiyati shundaki, axborot va bilimlar bilan ishlash jarayonini osonlashtiradi. Fuqarolarning iqtisodiy kam ta‘minlangan qatlamlarining zarur axborot va bilimlar bilan ishlash jarayoni global AKTdan, ya‘ni internet tarmog‘idan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bir so‘z bilan aytganda, AKT ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning katalizatori vazifasini o‘taydi.

Global axborotlashgan jamiyatning to‘laqonli a‘zo bo‘lish mamla-katimiz uchun strategik masalalardan biridir. Bu masalaning ijobiy hal qilinishi uchun qisqa va o‘rta istiqbolga mo‘ljallangan AKTni rivojlantirish Dasturlari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilmokda. Hozirgi kunda davlat boshqaruv va mahalliy hokimiyat organlarining faoliyatiga AKTni joriy etish, uning infratuzilmasini rivojlantirish va Internet tarmog‘ida milliy segmentni rivojlantirish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda.



Bugungi kunga kelib AKT jahon iqtisodiyoti infratuzilmasining ajralmas qismiga aylandi. Shu sababli rivojlangan mamlakatlar AKTni iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qarab, uni yanada rivojlantirish yo'lidan bormokdalar.

Jamiyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning quyidagi kutiladigan natijalarini umumlashtirish mumkin:

1. Davlat boshqaruviga tatbiq etilganda: davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ma'lumotlar almashinuviga ochiqlik va oydinlik kiritadi; ochiq fuqarolik jamiyati qurishga ko'maklashadi; boshqaruv samaradorligini oshiradi; jamiyat va iqtisodiyotda bo'layotgan o'zgarishlarni kuzatish uchun mutlaqo yangi imkoniyatlar yaratadi; davlat hokimiyati va xo'jalik yurituvchi subektlar o'rtasidagi boshqaruv jarayonini yaxshilaydi; davlat boshqaruvida harajatlarni keskin kamaytiradi;

2. Iqtisodiy jarayonlarga tatbiq etilganda: mahsulot va xizmatlar tannarxini kamaytirishga ko'maklashadi; mahsulot va xizmatlar raqobatbardoshligini oshiradi; ishlab chiqarish samaradorligini va xizmatlar hajmini ko'paytiradi; elektron savdolarni yo'lga qo'yish va rivojlantirishga imkoniyat yaratadi; ma'lumotlar olish va ularni jo'natishga ketadigan moliyaviy harajatlarni kamaytiradi; ma'lumotlarni qisqa muddatlarda va sifatli olinishi natijasida xo'jalik faoliyati boshqaruvining samaradorligi o'sadi;

3. Ijtimoiy hayotda: aholini fuqarolik jamiyati sifatida shakllanishiga yordam beradi; bilim olish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi; tibbiyot xizmati sifatini ko'taradi; madaniy-ma'naviy merosni saqlash imkoniyatini yuksaltiradi; aholining bandligini oshirish va qo'shimcha daromadlar olishi uchun qulayliklar yaratadi; insonlarga tabiiy ofatlar va o'zgarishlarni oldindan aniqlash hamda ularning oldini olishga yordam beradi.

Bugun dunyodagi innovatsion jarayonlar quyidagi ijobiy o'zgarishlar fonida sodir bo'lmoqda:

4. Investorlarning ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga qiziqishning ortishi va bu sohani moliyalash hajmining keyingi yillarda o'sishi;

- Global telekommunikatsiyalar tarmog'ining shakllanishi;
- Internet texnologiyalardan foydalanish darajasining ortishi;
- Informatsion, nano va biotexnologiyalar sohasida konvergensiya jarayonlarining kengayishi;

• Energiya tejovchi texnologiyalarning qo'llanilish hajmining ortishi va pirovardida ekologik muammolarning hal etilishi.

Mamlaktimizda AKT borasida o'z yechimini kutayotgan ayrim muammolari ham mavjud. Jumladan:

5. Dunyo yalpi ichki mahsulotining 5,5 %i AKT sohasi hissasiga to'g'ri keladi, Janubiy Koreyada bo' ko'rsatkich 11,8 %ni, AQShda 6,8 %ni tashkil qiladi. Mamlakatimizda bo'lsa yalpi ichki mahsulotning 2 %i AKT xissasiga to'g'ri kelmokda;

6. Respublikadagi jami xizmatlar kesimida AKT xizmatlari



ulushining rivojlangan mamlakatlar bilan taqqoslaganda kamligi;

7. Har yili chop etiladigan “Axborotning ochikdik darajasi” reytingida malakatimizning pastki o‘rinlarni egallayotganligi;

8. Tashkiliy jarayonlardagi byurokratik to‘siqlarning hali-hamon sakdanib qolayotganligi;

9. Zamonaviy dasturiy mahsulotlar bozorining past darajada shakllanganligi;

10. AKT xizmatlari bozorida malakali mutaxassislarning yetishmasligi, ta’lim jarayonida amliyotning joriy etilmaganligi, axolining AKT bo‘yicha bilimi yetarli emasligi va boshqalar.

Fikrimizcha, AKT sohasining mavjud imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Innovatsion xizmatlarning huquqiy asoslarini takomillash-tirish orqali AKT sohasidagi xizmatlar ko‘lamini orttirish;

2. Innovatsionlarni amaliyotga tatbiq etishdagi barcha byurokratik to‘siklarni bartaraf etish;

3. Axborotlarning ochiqlik darajasini oshirish orqali tadbirkorlik faoliyati amalga oshirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, xususan, chet el investorlari uchun qulay investitsion muhit shakllantirish;

4. Moliya-bank tizimida innovatsion mahsulotlarni joriy qilish va rivojlantirish.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Chen, H., & Zhao, X. (2024). A Literature Review on Socialized Agricultural Services Enabling High-Quality Rural Development. *Rajapark International Journal*, 1(3), 48–59.

2. Somanje, A.N. et al. (2021). Evaluating farmers’ perception toward the effectiveness of agricultural extension services in Ghana and Zambia. *Agriculture & Food Security*, 10, 53.

3. Mullabayev, B., & Qazakov, T. (2024). Management Systems of Agricultural Products in the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Research in Commerce, IT, Engineering and Social Sciences*.

4. Rustamova, D., Makhmudov, O., & Yuldashev, A. (2019). Innovative Activities of Agriculture in Uzbekistan. *World Science*.